

BOLANI KITOB BILAN DO'STLASHTIRING

Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani

44-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Muhammadiyeva Hilola

Annatatsiya: Ushbu maqolamda kitob o'qishning ahamiyati va foydalari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: kitob, badiiy kitob, kitobxon, tarbiya

Kitob - bu bizning chin do'stimiz. U bilan biz ko'p narsalarni o'rganamiz. Bugungi kunda yosh avlodni kitobga qiziqtirish orqali tariximizni dunyo sirlarini, qadimiy milliy odatimizni, hayotini tushunishni o'rgatish mumkin. Kitob o'qigan inson oq va qorani ajratadigan bo'ladi. Kitob o'qishni avvalam bor oilada, ota-ona orqali qiziqtirish mumkin. Oila davrasida kitobni tushuntirib, namuna bo'lib o'qish yosh avlod qalbida kitobga mehr uyg'otadi. Kitobni ota-ona televizor, kompyuter yoki telefondan ko'ra ko'proq o'qib mutolaa qilsa, bola shu odatga o'rganadi. Bola harflarni tanimasdanoq ota-ona kitobni o'qib so'zlab berish orqali ertak yoki hikoyaga eng asosiysi kitobga bo'lgan muhabbatini shakllantira oladi. Qiziqarli ertaklarni ovoz chiqarib o'qib qahramonlarning hatti-harakatlarini so'rab fikrini to'ldirib, ertakning qaysi joylari ta'sirli ekanini so'rash ham bolani yoshlikdan kitobga mehrini uyg'otadi. Kitobni harflarini so'zlarini o'qiy oladigan boladan esa har kuni o'qigan she'rlarini, hikoyalarini so'rash, o'zi qiziqqan kitoblarni sotib olib berish kitobni hamma narsadan ustunligini belgilaydi. Bola uchun vaqt ajratib kitob do'konlariga olib boorish, kutubxonalarga qiziqish bo'lajak kitobxon qalbiga yo'l topishda qo'l keladi. Donishmandlar kitob o'qishning quyidagi foydali jihatlari haqida ta'kidlaydilar.

-Mutolaa tushkunlikka qarshi kurashishga yordam beradi. Kitob o'qish – tushkunlikning eng yaxshi da'vosi. Tushkunlikka chalingan bemorlar kitob o'qishni boshlaganlaridan so'ng depressiyaga tushish holatlari kamayadi.

- Kitob o'qish qalb chigalliklarini yozadi, ko'ngilga huzur bag'ishlaydi, jaholatga barham beradi, turli-tuman yomon fikrlarni, vasvasalarni miyadan chiqarib yuboradi.

- Mutolaa xotirani kuchaytiradi, fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi.

- Har safar kitob o'qiganda miya faol ishlaydi. Muttasil kitob o'qigan insonlarda fikrlash qobiliyati yuqori bo'lar ekan.

- Kishi ko'p o'qigan sari bilimi oshib boraveradi, hamma sohadan ma'lum ma'noda xabari bo'ladi. Natijada kitobxon atrofidadigilar uchun ham qiziqarli suhbatdoshga, to'g'ri maslahatgo'yga aylanadi.

- Mutolaa tinglash qobiliyatini rivojlantiradi. Boshqalarni oson tushunishga yordam beradi/ Kitobni ovoz chiqarib o'qiganda buning samarasi yanada yaxshi bo'ladi.

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ustozlar va oila kattalarning o'zi ham yuksak didli, ma'rifatli va bilimli bo'lishi lozim. Ota-onalar bolalariga kitob tanlashda, ayniqsa, ularning yoshi, ruhiyati qiziqishi, didini hisobga olishi yoki zarur hollarda mutahassislar bilan maslahatlashishlari lozim. Shu bilan birga farzandi o'qiyotgan badiiy asarning tarbiaviy jihatlariga ham e'tibor berishi zarur. Buning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishi kerak. Yoshlarning kitobni o'qiganligini isbotlash maqsadida unga asarning o'ziga yoqqan qismiga rasm chizib kelishni aytish mumkin. Ularni shu tariqa kitob o'qishga qiziqtirilsa, keinchalik sinf kutubxonasini o'zbek tilidagi ertaklarning rus yoki o'zbek tilidagi tarjimalari bilan boyitish mumkin. Bu esa yosh avlod qalbidagi chet tillarini o'rganishga qiziqish uyg'otadi va mustaqil o'zlashtirish malakalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.I. Karimov „Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch“ 2008-yil.

1.„Boshlang'ich ta'lim“ jurnali 2014-yil 9-son.